



## MUSTAQIL TA'LIM SHAKLIDA INTERFAOL METODLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

*Abdishukurov B.F.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

**Tayanch soʻzlar:** raqamli texnologiyalar, AKT texnologiyalar, uzluksiz taʼlim texnoparklar, mustaqil ish, mustaqil tafakkur, metodik materiallar, korreksiya, modernizatsiya.

**Ключевые слова:** Цифровые технологии, ИКТ технологии, технопарки непрерывного образования, самостоятельная работа, самостоятельное мышление, методические материалы, коррекция, модернизация.

**Key words:** digital technologies, ICT technologies, continuous education technology parks, independent work, independent thinking, methodical materials, correction, modernization.

Kirish. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarni egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yoʻlidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida taʼkidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir soʻz bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash maumkinligi asoslab berdi. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan “Raqamli Oʻzbekiston–2030” dasturini ishlab chiqish va joriy etish vazifalari belgilandi. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilgʻor texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi [1]. Bugungi kunda zamonaviy tarix fani darslarida oʻtkir va dolzarb muammolari zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, barcha ommaviy axborot vositalari va internet axborotlarini sinchiklab oʻrganib borib, ularga integratsion yondashib, dars jarayonida zarur axborotlarni toʻgʻri tahlil etib, oʻquvchi va talabalar ongiga

yetkazmog‘i lozim. Yosh avlodni XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tamonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga talabalar va ularning bo‘lajak o‘qituvchi sifatлари, ijtimoiy, falsafiy, psixologik jihatlari, tarix fanlarini o‘qitishning huquqiy asoslari hamda bugungi tahlilali zamonda ta‘lim va tarbiyaga ta‘sir etuvchi omillarining metodologik asoslariga oid bir qator konseptual g‘oyalar tahlil etilgan. Uzlusiz ta‘lim jarayoni ilmiy-pedagogik tamoyillarga amal qilgandagina, o‘z oldiga qo‘ygan murakkab muammolarni yecha oladi. Ta‘lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilib, dars samaradorligini oshirish uchun esa, eng muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega tamoyillarni belgilangan holda muvofiq talablarga xos amalga oshirmoq zarur. Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mustaqil izlanishli faoliyatning ijobiy xususiyatlari V.I.Andriyanova, O.B.Berdiyeva, E.I.Zakinov, O‘.N.Sultonova, Sh.Yunusova, Z.Nishonova, J.Tolipova va N.Xalilovlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, pedagog olim S.Matjonovning[2] ilmiy izlanishlari ham o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda darslarda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. Zero, yosh avlodni ma‘naviy barkamol shakllantirishda mustaqil izlanishli faoliyat yuritish o‘z-o‘zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkur, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lmagan o‘quvchi ijodkor bo‘la olmaydi, mustaqil faoliyat yuritilmaydi.

Mustaqil ish – muayyan mavzuni va fanni o‘rganish jarayoni vaqtida amalga oshiriladi, ta‘lim oluvchilar muammoli savollarni hal etishlari, dars mashg‘ulotlarida olingan bilimlarini mustahkamlashlari talab qilinadi. Mustaqil ish davomida metodik materiallarda belgilangan muammoli savollarni mustaqil ravishda hal etadilar. Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘rganib chiqish orqali ishni ma‘ruza mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish bilan boshlash zarur, chunki mavzuning mazmunini tashkil etuvchi savollar to‘g‘risida umumiy tasavvurlarga ega bo‘ladilar, so‘ng esa mustaqil ish paytida mazkur metodik materiallarda ko‘rsatilgan ma‘ruza savollarini o‘rganib, ularning mazmunini chuqurroq tushunib oladilar. Kasbiy tayyorgarlikni oshirishda talaba raqamli texnologiyalarni har tomonlama mukammal tarzda o‘rganishi kerak. Mustaqil ta‘lim - belgilangan o‘quv topshiriqlarini ta‘lim oluvchilar tomonidan mustaqil va ijodiy bajarish maqsadiga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati bo‘lib, uning negizini ta‘lim oluvchining mustaqil ishlari tashkil etadi. Mustaqil ishlar o‘quv – bilish faoliyatining bir turi, o‘quv faoliyatining tashkiliy shakl – usuli, bilim o‘zlashtirish yo‘li, vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ta‘lim oluvchilarning mustaqil ishlari didaktik maqsadi, mustaqil o‘quv faoliyatining



darajasi, yakka kishiga yoki guruhga mo'ljallanganligi, axborot manbai, bilim olish metodlari, shakl va bajarish o'rniga ko'ra ham tasniflanadi, farqlanadi. Mustaqil ta'lim ko'pincha talabanning ehtiyojlariga moslashtiriladi va loyihalar kursning barcha asosiy mavzularini qamrab olishini ta'minlash o'qituvchining ma'suliyati hisoblanadi. Mustaqil ta'limni mohiyatan asosiy ikkita turga ajratish maqsadga muvofiq-o'qituvchi rahbarligidagi talabanning mustaqil ishi (O'RTMI) va talabanning mustaqil ishi (TMI). Hozirgi kunda vaqt me'yorlarida O'RTMI (masalan hisob-grafik ishiga, kurs ishiga, kurs loyiha ishiga, malakaviy amaliyotga, malakaviy bitiruv ishiga, magistrlik dissertatsiyasiga va talabanning ilmiy-tadqiqot ishiga, talabanning ilmiy-pedagogik faoliyati va ilmiy analiyotiga(stajirovkasiga)rahbarlik, doktorantga, mustaqil izlanuvchiga rahbarlik va h/k) uchun muayyan o'quv yuklamalari belgilab qo'yilgan [3]. O'quvchilarga mustaqil ta'limni bajarish yuzasidan fan o'qituvchisi uslubiy ko'mak va yo'nalish berib boradi. Mustaqil ta'limning shakli fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda o'qituvchining mavzularni tanlashida ijodiy yondashishiga ham bog'liq. Mustaqil ta'lim o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin bo'lib, bu jarayonda o'quvchi tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rganadi. Bu kelajakda ijodiy va ijtimoiy faol bo'lishida, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil harakat qilishida zarur bo'lib, kelajakga qaratilgan vazifalarni qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan kadrlar avlodini shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim oluvchi mustaqil ishlari muayyan fandan o'quv dasturida keltirilgan o'quv ishlarining ma'lum qismi bo'lib, unga ajratilgan vaqt davomida rahbar-o'qituvchi maslahatlari asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida ta'lim oluvchi tomonidan bajariladi [4].

Inson raqamli axborot texnologiyalaridan birinchi muloqot uchun foydalanishni boshlagan, yillar o'tib uning sohalari kengayib nafaqat muloqot inson butun boshli hayoti texnologiyalarga bog'lanib qoldi. Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagogik mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringni oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxasislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda, xususan Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shvetsariya, Germaniya, Malayziya, Kanadaning mutaxasis tayyorlash bilan bog'liq tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'limning asosiy vazifasi talabalarda tanlangan mutaxasislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda iborat bo'lib, vazifani bajarish asosida ta'lim oluvchining kasbiy tayyorgarligi ta'minlanadi [5]. O'qitishning interfaol usullaridan "Aqliy hujum", "Munozara", "Keys stadi", "Klaster", "FSMU", "Blis" kabi, ayniqsa mashhur, "Mening yangiliklarim", "O'z navbatida fikr", "Venn

diagrammasi” va boshqalar. Bu usul va uslublarning barchasi universitetdagi darslar va talabalarning o‘quv amaliyoti davomida an’anaviy usullar va innovatsion AKT texnologiyalaridan foydalangan holda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilmoqda. Natijada, usullardan qog‘oz, chizma qog‘oz, qalam, qalam, doska, tarqatma materiallar yordamida foydalanish mumkin degan xulosaga keldik. Lekin ularning kompyuter sinfida turli kompyuter dasturlari, videoproektor, LED ekran, elektron ko‘rsatgich yordamida qo‘llanilishi tarix darsining samaradorligi va qiziqishini, o‘quvchi va o‘quvchilar faolligini oshirishi shubhasiz [6]. Bizning fikrimizcha, o‘quvchilarning bilimini oshirish va turli ko‘nikma va malakalarni (ijodiy izlanish, mustaqil masalalar echish, voqea-hodisalarni tahlil qilish va boshqalar) o‘zlashtirishda kafolatlangan natijaga erishish uchun innovatsion texnologiyalar va AKTning o‘rni, innovatsion texnologiyalari o‘qituvchilarning faoliyatida juda katta o‘rin egallaydi.

Natijalar va muhokama. Bugun o‘z oldimizga o‘z fikrini erkin bayon eta oladigan, mustaqil fikrlash malakalarini egallagan barkamol shaxsni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bolalarni mustaqil ravishda o‘z ustida ishlash va bilim, ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor berish lozim. Mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar haqida gap ketganda, albatta, bilish jarayonlariga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Qiziqish orqali insonda bilishga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bilishga bo‘lgan ehtiyoj o‘sha ob’yekt haqida faol fikr yuritishni talab etadi. Fikrlash, tafakkur qilish asosida subekt tomonidan ob’yektning mohiyati anglanadi. Bu insonda mustaqil fikr yuritish asosida tafakkurini rivojlantiradi. Ta’lim oluvchilar dunyoqarashini shakllantirishda sinf xonada o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari o‘quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlariga ham alohida e‘tibor qaratish lozim. Shundan kelib chiqib, ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni maqsadli tashkil qilish natijasida ta’lim oluvchilarning fanlar bo‘yicha bilimlarini faol va ongli o‘zlashtirishlarini ta’minlash shu bilan birga kelgusidagi kasbiy mutaxassislik faoliyatiga keng tayyorlash, hayotiy maqsadlarini aniq va to‘g‘ri shakllanishiga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Mustaqil ta’limni maqsadli tashkil qilish natijasida ta’lim oluvchilarning bilimlarni faol va ongli o‘zlashtirishlarini ta’minlash, shuningdek, ularni maktabdan keying kasbiy faoliyatga keng tayyorlash hayotiy maqsadlarining aniq va to‘g‘ri shakllanishiga erishish mumkin. Mustaqil ishlar samarali bo‘lishi uchun ta’lim oluvchilar quyidagilarga e‘tibor qaratishlari lozim:

- mustaqil ish shaxsning o‘z intellektual imkoniyatlarining kengaytirishida muhim o‘rin tutishini;
- mustaqil ishni bajarish, ular dunyoqarashini, tafakkur tushunchalarini kengaytirishini anglashlari darkor [7].



Mustaqil ta'limda o'quvchi axborotning asosiy qismini mustaqil o'zlashtiradi. Shuning uchun ularga mustaqil ishni to'g'ri rejalashtirishda va ish vaqtini unumli tashkil qilishda yordam berishi zarur. Mustaqil tahsilning muhim metodlaridan biri muloqotdir. Mustaqil ta'limning pirovard maqsadi ta'lim oluvchilarni ijodiy izlanishga, har tomonlama o'zi ustida ishlashning mohiyatini anglashga tortishdir. Mustaqil ishni bajarish o'qituvchi tomonidan boshqarilmaydi. Lekin shunda ham o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqa bo'lmasa ham, uning mustaqil faoliyat natijalari kutilgan natijani bermaydi. Shu bois bu faoliyatni takomillashtirishda o'qituvchining ta'siri katta bo'ladi. Shuni hisobga olish kerakki, ba'zi o'quvchilar o'quv faoliyatga befarq, hatto mustaqil ishni ham bajarmaydi. Bu vaziyatning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. O'qituvchi ularni aniqlab oldini olish va bartaraf etishi shart bo'ladi. Mustaqil ishlarga bo'lgan talablarning biri ularni tartibli hamda mustaqil bajarishdan iborat. Agar bilim mustaqil anglangan, his etilgan, qiyinchiliklarga duch kelib o'rganilgan bo'lsa, unda bu bilim to'la va chuqur o'zlashtirilgan bo'ladi [8]. Bularning bari mustaqil ishni bajarish natijasida amalga oshadi. Bu o'z navbatida o'rganilayotgan fanga ma'suliyatlik, o'quv faoliyatiga ko'nikma, ish faoliyatini rejalashtirish, vaqtni tejab ishlash, o'z-o'zini nazorat qilish, korreksiya (xatolarni tuzatish) qilish va hokazolarga bog'liq ham bo'ladi.

Xulosa. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar fan nuqtai nazaridan kelib chiqib individual yondashgan holda raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llashi mumkin. Mustaqil ta'limni sifatli tashkil etish fan o'qituvchisining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lib, shaffof baholashni talab qiladi.

Shu sababli talabalarni baholashda sub'yektiv omillarni kamaytirish va baholashning avtomatlashtirilgan, taqdimot, loyiha, test shakllarini joriy etish lozim. Hozir yangilanib borayotgan davrda raqamli texnologiyalarni mukammal tarzda o'rganib, tatbiq qilib, amalda qo'llab shaxsiy faoliyatni rivojlantirish kerak. Raqamli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'tiladigan ma'ruza darslari talabalarga raqamli axborot texnologiyalarisiz o'tiladigan darslarga nisbatan ancha samarali va tushunarli tarzda qabul qilinadi. Xalqimizda bir naql bor: "Minga marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal". Talaba amaliyot jarayonida ham raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga ochiq dars mashg'ulotlari o'tib, o'quvchilarni diqqatini o'ziga jalb qiladi. Raqamli texnologiyalarni nafaqat ta'limda, boshqa turli sohalardan qo'llash ham effekt beradi. Bitta fanni mustaqil ta'limini misol sifatida ko'radigan bo'lsak, professor o'qituvchi har bitta talabaga alohida yoki talabani guruhlariga bo'lgan holda mustaqil ta'lim topshiriqlarini berishi mumkin. Referat, prezentatsiya, dars ishlanma va shu kabilarni tayyorlash uchun raqamli texnologiyalarni ahamiyati yuqoridir.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил қилиш. Педагогика фанлари докт. дисс. автореф. –Т.: 1998.
3. G.Turdiyeva. Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali tashkil etish metodikasi. // Monografiya. Durdona nashriyoti -2020y
4. Қаршибоев Х, Олий таълимда талабалар мустақил ишларини ташкил этиш. – // "ТА'ЛИМ МУАММОЛАРИ". № 4. 2009 – Б 26.
5. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. Monografiya. – Т.: Fan, 2004. В 73-79
6. Мамагов Ш., Алибеков У. Тарихни ўқитиш ва ўрганишда ахборот-технологик таъминотининг ўрни. // "Талаба ёшларнинг миллий маънавий меросдан фойдаланиш имкониятларини кенгайтиришнинг илмий-услубий масалалари" Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. У. 2009. 197–198 б.
7. Исмаилова Ш. Олий таълимда талабалар мустақил таълимини ташкил қилишнинг услубий масалалари. // Таълим муаммолари № 3. 2009 – Б 3.
8. Абдалова С.Р. Талабаларнинг мустақил таълимини назорат қилиш йўллари. // Xalq ta'limi № 1. 2008 – Б 63-64.

**РЕЗЮМЕ**

Mazkur maqolada mustaqil ishni tashkil etishning asosiy maqsadlari auditoriyada o'qish jarayonida olingan bilimlarni tizimlashtirish va chuqurlashtirish, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, o'quvchilarning mustaqilligi, mas'uliyati va ijodiy tashabbuskorligini, tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat bo'lishi kerak. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish usullari, talabalarning ijodiy ishlarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish va ularning mustaqil ta'lim sifatida talabalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish kabi masalalar tahlil qilingan. Talabalarni ijodiy ishlarini tashkil etish metodlari o'rganib chiqilgan, ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish usul va metodlari haqida fikr yuritilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье основными целями организации самостоятельной работы должны стать систематизация и углубление полученных на уроке знаний, самостоятельное усвоение учебного материала, развитие самостоятельности учащихся, ответственности и творческой инициативы, исследовательских навыков. Также были проанализированы такие вопросы, как методы организации самостоятельной работы студентов, анализ творческих работ студентов, организация научно-исследовательских работ и контроль их выполнения студентами в качестве самостоятельного образования. Были изучены методы организации творческой работы студентов, обсуждены методы и методы руководства научной и исследовательской работой.

**SUMMARY**

In this article, the main goals of organizing independent work should be systematization and deepening of the knowledge acquired in the classroom, independent mastering of educational material, development of students' independence, responsibility and creative initiative, and research skills. Also, issues such as methods of organizing students' independent works, analysis of students' creative works, organization of scientific research works and control of their implementation by students as independent education were analyzed. The methods of organizing students' creative work were studied, and the methods and methods of leading scientific and research work were discussed.